

YASHIL IQTISODIYOT: RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI

Primova Dilafruz To'liqinova

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasining

assistenti, E-mail: primovadilafruz365@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning asosiy tamoyillari va rivojlantirish zaruriyati tahlil qilinadi. Zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ekologik muammolar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda, shuning uchun iqtisodiy faoliyatda ekologik jihatlarni hisobga olish dolzarb masalaga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yashil texnologiyalar va ekologik standartlarni joriy etish natijasida energiya samaradorligi oshib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkoni yaratiladi. Tezisda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan bo'lib, ular iqtisodiy siyosat yuritishda va strategik rejalashtirishda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar, resurs tejankorlik, yashil moliyalashtirish.

Zamonaviy dunyoda ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global kun tartibining muhim yo'nalishiga aylangan. An'anaviy iqtisodiy modelning atrof-muhitga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri ortib borayotgan bir sharoitda, resurslarni samarali boshqarish va ekologik muvozanatni saqlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot, asosan, ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu model tabiiy resurslardan oqilona foydalanish,

chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qator tashabbuslar ilgari surilgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan barqaror rivojlanish bo'yicha maxsus strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu hujjatlar ekologik muammolarni hal qilish bilan birga, iqtisodiy manfaatlarni ham ta'minlashga qaratilgan. So'nggi yillarda bir qator davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish uchun davlat siyosatini ekotexnologiyalarni joriy etishga yo'naltirishmoqda. Shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya sohasiga investitsiyalarni oshirish, energiya samaradorligini ta'minlash va uglerod chiqindilarini kamaytirish borasida turli dasturlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib, hukumat tomonidan bu yo'nalishda bir qator islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish bo'yicha qator dasturlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash orqali sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ekologik muammolarni minimallashtirish choralari ko'rilmqda. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat tabiiy resurslardan samarali foydalanishga, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Biroq yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni muayyan muammolar bilan ham bog'liq. Xususan, ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish uchun yetarlicha investitsiyalar jalb qilish, ilg'or texnologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Shuningdek, yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishda kadrlar tayyorlash va aholining ekologik savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish tamoyillari mazkur iqtisodiyot qanday bo'lishi zarurligini belgilab beradi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari “jigarrang iqtisodiyot” tamoyillariga nisbatan keng qamrovli bo'lib, 1972 yilda Stokgolmda

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi¹

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro va milliy amaliyotda 2012-yilda UNEP boshqaruv kengashi "Yashil iqtisodiyot" kaolitsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan (1-rasm):

Barqarorlik	Adalatlilik	Barcha uchun foydalanish imkoniyatning mavjudligi
Sog'lom sayyora	Ishtirok etish	Oqilona boshqarish va shaffoflikni ta'minlash
Moslashuvchanlik	Samaradorlik va etarlilik	Avlodlar birdamligi

1-rasm. Yashil iqtisodiyot tamoyillari Barqarorlik tamoyili²

"Yashil iqtisodiyot" barqarorlikni ta'minlash vositasi hisoblanadi. U barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmagan holda, uni ta'minlash usullaridan biri sanaladi. "Yashil iqtisodiyot" sog'lom atrof-muhitga bog'liq va barcha uchun farovonlik manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunday siyosat barqaror rivojlanishning barcha (ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy) maqsadlarini qamrab oladi va ushbu yo'nalishlar bo'yicha ijobiy natijalarga erishish imkonini beruvchi aralash strategiyalarni ishlab chiqadi. Adolatlilik tamoyili. "Yashil iqtisodiyot" mamlakatlar va avlodlar o'rtasida tenglik, adolatni qo'llab-quvvatlaydi. U inson huquqlari, madaniy xilma-xillik, gender tengligini ta'minlashga ko'maklashadi, bilimlar, ko'nikmalar, tajribalar va har bir insonning ushbu sohaga qo'shgan hissasini tan oladi. Tub aholining yer, hudud va resurslarga bo'lgan huquqlari


¹ Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // КонсультантПлюс 4012.00.32 2002-2013.

² Чебанов С. "Зеленая" экономика: роль суверенных фондов // Мировая экономика и международные отношения, № 3, 2019. с. 5-12.

hurmat qilinadi. Barcha uchun foydalanish imkoniyati tamoyili.

Yashil iqtisodiyot barcha uchun farovonlik olib keladi va kambag'allik darajasini pasaytiradi, barcha mamlakatlarda inson taraqqiyotining yuqori darajasiga erishish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sog'liqni saqlash, ta'lim, sanitariya, suv bilan ta'minlash, energiya va boshqa asosiy xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil ayollar huquqlari va imkoniyatlarining kengayishiga ko'maklashadi. "Yashil iqtisodiyot" barqarorlik asosida amalga oshirilsa rivojlanish huquqini qo'llab-quvvatlaydi.

"Yashil iqtisodiyot" doirasida amalga oshirilayotgan siyosat o'z ta'sir dastaklariga ega bo'lishi zarur. Jahon amaliyotida yashil iqtisodiy siyosat doirasida qo'llanilayotgan dastaklarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: ma'muriy; iqtisodiy; axborot (2-rasm):



2-rasm. Yashil iqtisodiy siyosat mexanizmlari³

Korxonalarga atrof-muhitga zarar yetkazmaslik maqsadida nimalarga rioya etish zarurligi qayd etiladigan me'yoriy-huquqiy cheklovlar ma'muriy dastaklar hisoblanadi. Ushbu dastaklar ayrim shaxslar tomonidan qoidalarga zid hatti-harakatlar qilinganda qo'llaniladigan sanksiyalar sifatida ishlatilishi mumkin. Sanoat uchun muayyan zaharli moddalarni ta'qiqlash ma'muriy dastak sifatida qo'llanilishi mumkin. Qonunchilik orqali yuqori samaradorlikka ega standartlarni joriy qilish yordamida sanoat tarmoqlariga "yashil" investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarishni yo'lga

³ Adrian C. Newton. An Introduction to the Green Economy: 1st Edition. Routledge, 2014. -382 p.

qo'yish va ekologik toza mahsulotlar bozorini shakllantirish mumkin bo'ladi. Ma'muriy usullar yordamida iqtisodiyot tarmoqlariga muayyan texnologiyalardan foydalanish talablarini joriy etish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yashil iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat ekologik muammolarning yechimi, balki iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi kabi global muammolar fonida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotga o'tish orqali ekologik muammolarni yumshatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya va resurs samaradorligini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki yangi ish o'rinlari yaratish, energiya samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali milliy iqtisodiyotni raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi. Biroq bu yo'nalishda samarali natijalarga erishish uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Davlat siyosatida yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash va uni milliy rivojlanish strategiyalariga integratsiyalash;
2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ayniqsa quyosh va shamol energetikasi bo'yicha innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash;
3. Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ishlab chiqarishlarni bosqichma-bosqich ekologik toza texnologiyalarga almashtirish;
4. Ekologik ta'lim va ongni oshirish orqali aholining yashil iqtisodiyot tamoyillariga nisbatan munosabatini ijobiy shakllantirish;
5. Tadbirkorlik subyektlariga "yashil" faoliyat uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish tizimini yaratish.

Umumiy qilib aytganda, yashil iqtisodiyot O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan takliflarning hayotga tatbiq etilishi mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash,

innovatsion iqtisodiyotga o'tish va global ekologik muammolar yechimiga hissa qo'shishga xizmat qiladi. Bu esa kelajak avlodlar uchun sog'lom ekologik muhit yaratish va resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror taraqqiyot sari muhim qadam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 - yil 21- maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-539-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 4- oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori
3. Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. - Т.: "Aloqachi", 2019. - 480 с.
4. Adrian C. Newton. An Introduction to the Green Economy: 1st Edition. Routledge, 2014. -382 p.
5. Кальнер В. Д. «Зеленая» экономика и безальтернативные ресурсы природы. - М.: Калвис, 2016. - 576 с.
6. Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консультант плюс 4012.00.32 2002-2013.
7. Чебанов С. "Зеленая" экономика: роль суверенных фондов // Мировая экономика и международные отношения, № 3, 2019. с. 5-12.
8. Липина С.А., Агапова Е.В., Липина А.В. Развитие зеленой экономики России: возможности и перспективы.-М.: ЛЕНАНД, 2018. - 328 с.
9. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari. // Ilmiy elektron jurnali. XXI asr: fan va ta'lim masalalari", №2, 2017.